

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI

JIZZAX POLITEXNIKA INSTITUTI

DAK raisi

"Avtomobil yo'llari"

Otaboboyev U.

kafedra mudiri

23.06.2019 yil

Sh. Erboyev  
23.06.2019 yil

## TUSHUNTIRISH QISMI

Mavzu: Toshkent shahridagi I<sup>h</sup> toifali M39 "toshkent xalqa yo'li" avtomobil vo'lining 20-25 km bo'lagini transport-ekspluatatsion sifatlarini oshirish texnologik jarayonlarini ishlab chiqish va tashkil etish.

### BITIRUV MALAKAVIY ISHINING TARKIBI

<i>Tushuntirish qismi</i>	<u>87</u>	<i>bet</i>
<i>Grafik qismi</i>	<u>6</u>	<i>varoq</i>

Talaba: 148-15 TIE Abulqosimov Sh. H.

Bitiruv malakaviy ishi raxbari: Darabov M.

### QISMLAR BO'YICHA MASLAHATCHILAR:


- Asosiy qism bo'yicha   
Darabov M.
- Texnologik qism bo'yicha   
Darabov M.
- Iqtisodiy qism bo'yicha   
Ko'chimov A.
- Hayot faoliyati xavfsizligi qismi bo'yicha   
Tirkasheva M.
- Ekologiya va atrof muhit muhofazasi qismi bo'yicha   
Tirkasheva M.

### TAQRIZCHILAR:

- \_\_\_\_\_
- \_\_\_\_\_

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI

JIZZAX POLITEXNIKA INSTITUTI  
“AVTOTRANSPOST” FAKULTETI  
“AVTOMOBIL YO'LLARI” KAFEDRASI

“TASDIQLAYMAN”  
“Avtomobil yo'llari” kafedrasi  
mudiri  Sh.O.Erboyev  
“12”  2019 yil

BITIRUV MALAKAVIY ISHI BO'YICHA  
**TOPSHIRIQ**

Talaba: Abulgosimov Sh H

1. Bitiruv malakaviy ishining mavzusi: Toshkent shahridagi I<sup>h</sup> toifali M39 "toshkent xalqa yo'li" avtomobil yo'llining 20-25 km bo'lagini transport-ekspluatatsion sifatlarini oshirish texnologik jarayonlarini ishlab chiqish va tashkil etish.

Bitiruv malakaviy ishi mavzusi institut rektorining “31” dekabr 2018 yildagi 506-T sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

2. Bitiruv malakaviy ishini topshirish muddati. “15” iyun 2019 yil.
3. Bitiruv malakaviy ishini bajarishga doir ma'lumotlar:  
amaldagi loyihalash va qurilish ishlarini bajarish uchun me'yori  
qo'llanmalari va bitiruv oldi amaliyotida to'plangan ma'lumot
4. Bitiruv malakaviy ishi tushuntirish qismining tarix:  
- Kirish  
- Asosiy qism  
- Texnologik qism  
- Iqtisiy qismi  
- Hayot faoliyatni xavfsizligi qismi  
- Ekologiya va atrof muhit muhofazasi qisi

## 5. Bitiruv malakaviy ishining grafik qismi tarkibi:

- Avtomobil Yo'lning bog'lanish xaritasi sxemasi;
- Yo'lning asosiy texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari avtomobil yo'lning ko'ndalang kesimi;
- Avtomobil yo'lining transport-ekspluatatsion ko'rsatkichlarini kompleks baxolash grafigi;
- Avtomobil yo'lining transport-ekspluatatsion sifatini oshirish texnologik jarayonlari xaritasi;
- Avtomobil yo'lning chiziqli-kalendar grafigini qurish;
- Avtomobil yo'lning jihozlash sxemasi.

## 6. Bitiruv malakaviy ishi bo'yicha maslahatchilar:

Nr	Bo'slim mavzusi	Maslaxatchi o'qituvchining F.I.SH.	Topshiriq berilganligi haqida belgi (imzo, sana)	Topshiriqni bajarilganligi haqida belgi (imzo, sana)
1.	Kirish	Darabov M.	12.01.2019	
2.	Asosiy qism	Darabov M.	01.02.2019	
3.	Texnologik qism	Darabov M.	01.03.2019	
4.	Iqtisod qismi	Ko'chimov A.	01.03.2019	
5.	Hayot faoliyati xavfsizligi qismi	Tirkasheva M.	01.04.2019	
6.	Ekologiya va atrof muhit muhofazasi qismi	Tirkasheva M.	01.05.2019	

## 7. Bitiruv malakaviy ishining bajarilish rejasi:

Nr	Bitiruv malakaiy ishi bosqichlarining nomi	Bajarilish muddati (sana)	Tekshiruvdan o'tganlik belgisi (imzo)
1.	Asosiy qismi	12.01.2019-01.03.2019	
2.	Texnologik qismi	01.02.2019-10.05.2019	
3.	Iqtisodiy qismi	01.03.2019-15.05.2019	
4.	Hayot faoliyati xavfsizligi qismi	01.04.2019-10.06.2019	
5.	Ekologiya va atrof muhit muhofazasi qismi	01.05.2019-10.06.2019	

Bitiruv malakaviy ishi rahbari:

Darabov M.  
(Familiyasi, ismi, sharifi)

Topshiriqni bajarishga oldim:

Abulqosimov Sh H  
(Tashabaring familiyasi, ismi, sharifi)  
"12" yanvar 2019 yil

Topshiriq berilgan sana:

## ANNOTATSIYA

Toshkent shahridagi I<sup>b</sup> toifali M39 “Toshkent xalqa yo‘li” avtomobil yo‘lining 20-25 km bo‘lagini transport-ekspluatatsion sifatlarini oshirish texnologik jarayonlarini ishlab chiqish va tashkil etish. Mavzusi: **Asosiy bo’limda** Yo‘l joylashgan hududning tabiiy-iqlim sharoiti, Avtomobil yo‘lining texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari, Avtomobil yo‘lining transport ekspluatatsion ko‘rsatkichlarini kompleks baholash va tadbirlarni belgilash. **Texnologik bo’limda** Talab qilinadigan yo‘l qurilish materiallari sarfini aniqlash, Avtomobil yo‘lining transport ekspluatatsion sifatlarini oshirish texnologik jarayonlarini hisobi, Texnologik jarayonlarda mashina-mexanizmlarga bo‘lgan talabni aniqlash. **Iqtisod bo’limda** Toshkent shahridagi I<sup>b</sup> toifali M39 “toshkent xalqa yo‘li” avtomobil yo‘lining 20-25 km bo‘lagini transport-ekspluatatsion sifatlarini oshirish texnologik jarayonlarini ishlab chiqish va tashkil etish bo‘yicha Smeta hisob-kitobi hujjatlari tuzilgan. **Hayot faoliyati xavfsizligi bo’limda** Avtomobil yo‘lini transport-ekspluatatsion sifatlarini oshirish texnologik jarayonlarini ishlab chiqishda hayot faoliyati havfsizligi ishlab chiqilgan. **Ekologiya va atrof muxit muxofazasi bo’limda** avtomobil yo‘lini transport-ekspluatatsion sifatlarini oshirish texnologik jarayonlarini ishlab chiqishda atrof muhit havfsizligi ishlab chiqilgan. **Xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro’yxatidan** iborat bo‘lib va bu jarayonlar yoritib berilgan. Bitiruv malakaviy ishi kafedra tomonidan ishlab chiqilgan uslubiy ko‘rsatmaga asosan yozilgan bo‘lib, institutda olgan nazariy bilimlarni ma’hsulidir.

## MUNDARIJA

T/r	<b>BAJARILGAN BOBLAR NOMLARI</b>	<b>SAHIFA</b>
	<b>KIRISH</b>	
<b>I-BO'LIM</b>	<b>ASOSIY QISM</b>	
1.1.	Avtomobil yo‘li joylashgan tuman tabiiy –iqlim sharoiti	
1.2.	Avtomobil yo‘lining asosiy texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari	
1.3.	Avtomobil yo‘lning transport-foydalanish ko‘rsatkichlarini kompleks baholash	
<b>II-BO'LIM</b>	<b>TEXNOLOGIK QISM</b>	
2.1.	Talab qilinadigan yo‘l qurilish materiallari sarfini aniqlash	
2.2.	Texnologik jarayonlarda mashina-mexanizmlarga bo‘lgan talabni aniqlash	
<b>III-BO'LIM</b>	<b>IQTISOD QISM</b>	
3.1.	Toshkent shahridagi I <sup>b</sup> toifali M39 “toshkent xalqa yo‘li” avtomobil yo‘lining 20-25 km bo‘lagini transport-ekspluatatsion sifatlarini oshirish texnologik jarayonlarini ishlab chiqish va tashkil etish bo‘yicha Smeta hujjatlari	
<b>IV-BO'LIM</b>	<b>HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI</b>	
4.1.	Toshkent shahridagi I <sup>b</sup> toifali M39 “toshkent xalqa yo‘li” avtomobil yo‘lining 20-25 km bo‘lagini transport-ekspluatatsion sifatlarini oshirish texnologik jarayonlarini ishlab chiqish va tashkil	

	etish bo'yicha hayot faoliyati havfsizligi	
<b>V-BO'LIM</b>	<b>EKOLOGIYA VA ATROF MUXIT MUXOFAZASI</b>	
5.1.	Toshkent shahridagi I <sup>b</sup> toifali M39 “toshkent xalqa yo‘li” avtomobil yo‘lining 20-25 km bo‘lagini transport-ekspluatatsion sifatlarini oshirish texnologik jarayonlarini ishlab chiqish va tashkil etish bo'yicha ekalogiya va atrof muhit havfsizligi	
	<b>XULOSA</b>	
	<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI</b>	

## KIRISH

Jahondagi xalqaro transport kommunikatsiyalari va xalqaro yo'laklar masalasi tilga olinganda, O'zbekistonning mazkur kommunikatsiyalarning bevosita uzviy qismi bo'lgan – avtomobil yo'llari ham tilga olinadi.

O'zbekistonda yo'l transport kommunikatsiyalari ishlab chiqarishning hamda ijtimoiy infratuzilmaning muhim tarkibiy qismi bo'lib mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muhim o'rinni tutadi.

Bugungi kunda Respublikamizdagi Temir yo'llar uzunligi 8.0 ming kilometrni, avtomobil yo'llari 184 ming, magistral truba o'tkazgichlar esa 13.9 ming kilometrni tashkil etadi.

Shundan avtomobil yo'llari orqali tashuvlar eng yuqori o'rinnarda turib, yuklarning 91 foizi, yo'lovchilarning esa 98 foiz hissasi aynan mazkur yo'llarga to'g'ri keladi.

Bu – o'ta muhim masala. Chunki quyidagi raqamlarga e'tibor qilsangiz, bunga amin bo'lish mumkin:

So'nggi ikki yil ichida jahon miqyosida avtotransport vositasida yuklarni tashish hajmi 50,8 foizdan – 70,6 foizga oshgan. Shundan kelib chiqqan holda, transport-tranzit avtomobil yo'llaridan samarali foydalanish – har qanday davlat uchun ulkan daromad manbaidir.

Bularning natijasida yuklarni avtomobil yo'llari orqali tashish hajmi – o'tgan yil yakunlariga ko'ra 1,04 milliard tonnani tashkil etib, bu – oldingi yilga qaraganda 3,7 foizga ko'p. Tranzit yuklarni tashish hajmi ham yildan-yilga ortib bormoqda.

Bugungi kunda O'zbekistonda 10 ta xalqaro transport yo'laklari hamda ushbu yo'naliishlardagi avtomobil yo'llarini ta'mirlash, qayta qurish va foydalanish bo'yicha ishlari olib borilmoqda. Mamlakatimiz bu boradagi 11 xalqaro konvensiya a'zosi hisoblanadi, 29 davlat bilan sohaga tegishli shartnomalarga imzo chekkan.

Ushbu tadbirlar doirasida – O'zbekiston Respublikasi hududidan xalqaro yuklarni tashishiga mo'ljallangan 52 ta avtomobil yo'llari belgilangan.

**Bugun mamlakatimiz avtomobil yo'llaridagi qurilish va ta'mirlash ishlari haqida.** Respublika bo'yicha jami 184 ming km avtomobil yo'llari mavjud

bo‘lib, shundan 116 ming 560 km ichki xo‘jaliklararo, qishloq, shahar va ovullarning avtomobil yo‘llari hamda 42 ming 676 km umumfoydalanuvdagi avtomobil yo‘llaridan iborat.

Bu borada qilingan va qilinayotgan ishlar haqida soatlab gapishtirishim mumkin. Lekin keling, qilinayotgan ishlarning raqamlardagi aksiga murojaat qilib qo‘ya qolaylik. Men Sizga hozir 2018 yilning 1-yarmida qilingan ishlarni – o‘tgan yilgi shu davrga taqqoslangan solishtirma ma’lumotlarni keltiraman:

a) Qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta’mirlash bo‘yicha:

2017 yilda – 40 km qurilib, rekonstruksiya qilingan, 21,5 km kapital ta’mirlangan, jami – 61,5 km

2018 yilda – 137,7 km qurilib, rekonstruksiya qilingan, 20,5 km kapital ta’mirlangan, jami 158,2 km

Ko‘rsatkich o‘tgan 2017 yilga nisbatan 257 foizga o‘sgan

b) Joriy ta’mirlash va saqlash bo‘yicha:

2017 yilda – 1120 km

2018 yilda – 1275 km

Ko‘rsatkich o‘tgan 2017 yilga nisbatan 113,8 foizga o‘sgan

v) Ichki xo‘jalik yo‘llari va shahar ko‘chalari bo‘yicha:

2017 yilda – 2760 km yo‘llar ta’mirlangan

2018 yilda – avvalgi dasturlar bo‘yicha – 1682 km, "Obod qishloq" dasturi bo‘yicha – 1351 km, "Obod mahalla" dasturi bo‘yicha – 26 km, jami – 3059 km

Ko‘rsatkich o‘tgan 2017 yilga nisbatan 110,8 foizga o‘sgan

Bu raqamlar ortida – minglab yo‘lsozlarimizning ulkan mehnatlari yotibdi.

Mazkur tadbirlarni amalga oshirish orqali yo‘l ishlari uchun ajratilayotgan mablag‘lardan samarali va maqsadli foydalanishga erishildi hamda ta’mirlanadigan yo‘l qismlarining ko‘payishi bilan birga, ularning uzoq muddat xizmat qilinishi ta’minalash yo‘lida harakatlar olib borilmoqda.

Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasining rivojlanishning beshta ustuvor

yo‘nalishlari bo‘yicha tasdiqlangan Strategiya - bu qulay uy-joy qurilishi, yo‘l-transport, muhandislikva kommunikatsiya tarmoqlarini modernizatsiya qilish transport infratuzilmasini yanada rivojlantirish va rekonstruktsiya qilish, birinchi navbatda viloyat avtomagistrallarini rivojlantirish, poytaxt va xo‘jaliklararo qishloq yo‘llarini, aholi punktlarini joriy ta’mirlash orqali aholi turmush sharoitini yaxshilashni ta’minlovchi ijtimoiy infratuzilma.

2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasining beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha harakat strategiyasini amalga oshirish Davlat dasturini amalga oshirish doirasida O‘zbekiston Respublikasi Yo‘llar bo‘yicha Davlat qo‘mitasi yo‘llar sohasida yagona texnik siyosatga ega.

Sanoatning aniq vazifalaridan kelib chiqqan holda, 2017-yilda O‘zbekiston milliy avtomagistrali tarkibiga kiruvchi, xalqaro talab va standartlarga javob beradigan 260,0 km avtomobil yo‘llarini rekonstruktsiya qilish, 245,0 km umumiyo‘llarni kapital ta’mirlash, yo‘l sirtlarini zarur shartlarga etkazish 2900,0 kilometrdan ziyod mintaqaviy avtomobil yo‘llarini ta’mirlash, muntazam ta’mirlash yo‘li bilan 2350,0 kilometrdan ortiq umumiyo‘llarning yumshatilishini ta’minlash.

Bu borada loyihalashtirish va yo‘l-qurilish ishlari sifatini oshirish imkonini beradigan to‘laqonli buyurtmachi xizmatini yaratish maqsadida joriyyilning fevral oyida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yo‘l xo‘jaligini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirdari to‘g‘risida" gi Farmoni va qator qarorlari qabul qilindi. Ularga asosan Avtomobil yo‘llari qurish va foydalanish davlat aktsiyadorlik kompaniyasi ("O‘zavtoyo‘l" DAK) negizida

### **O‘zbekiston Respublikasi Avtomobil yo‘llari davlat qo‘mitasini tashkil etildi.**

#### **Yo‘l xo‘jaligini boshqarishning yangi tizimi tashkil etildi.**

Davlat qo‘mitasi - avtomobil yo‘llarini boshqarish bo‘yicha maxsus vakolatlarga ega bo‘lgan davlat organi sifatida belgilandi.

Umumiyo‘l foydalanuvdagisi hamda xo‘jaliklararo qishloq avtomobil yo‘llari, shahar ko‘chalarari, shahar posyolkalari, qishloq va ovullarning ko‘chalarida loyihalashtirish, qurish, rekonstruktsiya qilish va ta’mirlash ishlarida buyurtmachi

vazifasini bajarish qo‘mitaning tegishli bo‘linmalari ixtiyoriga berildi.

Qo‘mita tarkibida qo‘shimcha tarzda avtomobil yo‘llari va ko‘priklarni qurish va ta’mirlash, yo‘l-qurilish materiallari ishlab chiqish hamda ko‘kalashzorlashtirish va obodonlashtirishga ixtisoslashgan qo‘shimcha korxonalar tashkil etildi.

**Qo‘mitaning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi:**

avtomobil yo‘llari sohasida yagona texnik siyosatni olib borish; avtomobil yo‘llari tarmoqlarini rivojlantirish va takomillashtirish istiqbollarini belgilash;

avtomobil yo‘llarining xalqaro tranzit yo‘laklarini shakllantirish; zamonaviy transport oqimi sharoitida avtomobil yo‘llaridan foydalanuvchilarning manfaatlarini hisobga olib, avtomobil yo‘llarini moliyalashtirish, loyihalashtirish, qurish, ta’mirlash va ulardan foydalanish masalalari kompleks hal etilishini ta’minlash hamda buyurtmachi xizmatining samarali faoliyatini tashkil etish;

xo‘jaliklararo qishloq avtomobil yo‘llarining, shaharlar, shahar posyolkalari, qishloqlar va ovullar ko‘chalarining mavjud tarmog‘i saqlanishini ta’minlash ishlarini muvofiqlashtirish, ulardan transportda foydalanish darajasi yuqori bo’lishini ta’minlash

Qabulqilingan dasturga asosan 2018-2020 yillar davomida "O‘zbek Milliy avtomagistrali" tarkibiga kirgan 1227,8 km avtomobil yo‘llari, shuningdek, ko‘priklar, yo‘l o‘tkazgichlar va transport echimlarini qurish va rekonstruktsiya qilish belgilangan.

Respublika umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llari tarmog‘ining bugungi kundagi mavjud titul holati quyidagi (1.1-jadval)da batafsil keltirilgan.

*Respublika umumiy foydalanuvdagi avtomobil yo'llarining titul holati*

**1.1-jadval**

<b>Hamma yo'llar</b>		<b>Yo'llar ahamiyati bo'yicha, km</b>			<b>Yo'llar qoplamasи bo'yicha, km</b>					
<b>Shundan toifasi bo'yicha, km</b>		<b>Hal- qaro</b>	<b>Davlat</b>	<b>Mahal- liy</b>	<b>s/b</b>	<b>a/b</b>	<b>Qora</b>	<b>Sha- g'al</b>	<b>Tup- roq</b>	
<b>I</b>	2664	1649	898	117	314	2241	109			
<b>II</b>	5969	1723	3648	598	24	5476	469			
<b>III</b>	7584	533	4132	2919	28	5113	2443			
<b>IV</b>	18993	67	4819	14107		7927	10988	78		
<b>V</b>	7485	19	585	6881		1221	4210	1349	705	
<b>Jami</b>	<b>42695</b>	<b>3981</b>	<b>14105</b>	<b>24609</b>	<b>366</b>	<b>21978</b>	<b>18219</b>	<b>1427</b>	<b>705</b>	

## I-ASOSIY QISM

### 1.1. AVTOMOBIL YO'LI JOYLASHGAN TUMAN TABIIY – IQLIM SHAROITI

#### Toshkent shahri tabiatini (relyefi, geologik tuzilishi, iqlimi, gidrografiysi, tuproqlari, o'simliklari)



Toshkent shahrining tabiatini ko‘p jihatdan uning geografik o‘rnini, yon-atrofi yer yuzasining tuzilishi bilan bog‘liq. Shahar Farbiy Tyanshanning Qorjontov, Ugom, Piskom, Ko‘ksuv va Chatqol tizmalari orasidan oqib chiqadigan Chirchiq daryosi vodiysining o‘rta qismida, daryoning o‘ng tomonidagi past-baland tog‘ oldi tekisligida joylashgan.

1.1-rasm Toshkent viloyati xaritasi

**Relyefi.** Toshkent relyefi, asosan, o‘rta pleystotsen (Toshkent sikli)da shakllangan past-baland to‘lqinsimon allyuvial-prolyuvial lyossli tekislikdan iborat bo‘lgan dastlabki yuzada hosil bo‘lgan. Bu yuza shimoli-sharqdan janubi-g‘arb tomonga nishab. Shahar relyefi ana shu dastlabki yuzaning Chirchiq daryosi o‘yib hosil qilgan vodiy va undan yuqori pleystotsen (Mirzacho‘l sikli)da hamda golotsen (Sirdaryo sikli)da hosil bo‘lgan terrasalar bilan tavsiflanadi.

Shaharning shimoli-g‘arbiy kattaroq qismida dastlabki yuza, ya’ni Chirchiq daryosining Toshkent siklida shakllangan yuzasi yaxshi saqlangan. Uning relyefida Qoraqamish, Bo‘zsuv, Salor kabi qad. kanallar hosil qilgan vodiylar va ularning tik jarliklardan iborat yonbag‘irlari ajralib turadi.

Shaharning janubi-sharqi, ya’ni Shota Rustaveli ko‘chasidan janubi-sharqqa tomon, to Chirchiq daryosigacha bo‘lgan qismi esa, asosan, daryoning

ikkinchi qayir usti va qisman uchinchi qayir usti terrasalarida joylashgan. Ushbu terrasalarning yuzasi nisbatan tekis bo‘lib, lyoss va lyossimon yotqiziqlardan tuzilgan.

**Geologik tuzilishi.** Toshkent O‘rta Tyanshanning, asosan, gersin magmatizmi bilan tavsiflanadigan Chatqol-Qurama geologik zonasida joylashgan.

Shaharning geologik kesmasida ikkita katta qavatni yaqqol ajratish mumkin. Ostki qavat yoki fundament yuqori paleozoyga oid effuziv jinslardan tuzilgan bo‘lib, uning yuzasi 1,5–2,5 km chuqurlikda yotadi.

Shaharning shimoliy va janubiy qismlarida olib borilgan maxsus burg‘ilash natijasida fundament yuzasi 2300 m (Boshliq dahasi yaqinida) va 1390 m (Shreder nomidagi bog‘dorchilik ilmiy tekshirish instituti yaqinida) chuqurlikda uchraganligi ma’lum. Burmalangan fundament shimoli-sharqiy yo‘nalishdagi geologik yoriqlar va Qurama tizmalari yonbag‘irlarida yer yuzasiga chiqib yotadi. Paleozoy fundamentining ustki qatlamlari kuchli burmalangan metamorfik ohaktoshlar, tuflar, tufo-brekchiyalar va turli porfirtlardan iborat.

Shahar hududidagi eng yosh geologik yotqiziqlar to‘rtlamchi davrga oid bo‘lib, ular to‘rtta eroziya-akkumulyatsiya sikllari davomida shakllangan. Ularning umumiyligi qalinligi 300 m dan ortiq bo‘lgan eng ostki qatlamlari alevrit, gravelit, konglomerat, qattiq toshsimon lyoss («shox») va lyossalardan tuzilgan bo‘lib, nanay eroziya-akkumulyatsiya siklida (Q1) yotqizilgan. Ularning ustida umumiyligi qalinligi 100 m dan ortiq bo‘lgan, toshkent eroziya-akkumulyatsiya sikli (Q2)da yotqizilgan shag‘al, konglomerat va lyoss jinslari uchraydi. Lyoss yotqiziqlarining qalinligi 60–70 m, Yangiyo‘l sh. yaqinida esa 90 m dan oshadi. Mirzacho‘l eroziya-akkumulyatsiya sikli (Q3)da hosil bo‘lgan qatlamlar ham osti shag‘al, usti lyossimon jinslar bilan tavsiflanadi. Ularning umumiyligi 45–50 m atrofida. Sirdaryo eroziya-akkumulyatsiya sikli (Q4)da shakllangan yotqiziqlar esa, asosan, Chirchiq daryosining qayir qismi va birinchi, ikkinchi qayir usti terrasalarini hosil qilgan. Ular tabiiy qum, shag‘allardan iborat bo‘lib, qurilish xom ashyosi sifatida

foydalanimi. Toshkent sikliga oid lyoss va lyossimon yotqiziqlar esa g‘isht ishlab chiqarishda yaxshi xom-ashyodir.

**Iqlimi.** Shahar iqlimi kontinentaldir, qishi sovuq, yozi esa issiq va quruq bo‘ladi. Iqlim elementlarining tavsifini meteorologiya st-yasi ma’lumotlarining tahlilidan olish mumkin.

Toshkent serquyosh shaharlardan. Quyosh nur sochib turadigan vaqt yiliga o‘rtacha 2870 soatni tashkil qiladi. Yil davomida esa 110 soatdan (dekabrda) 390 soatgacha (iyulda) o‘zgaradi. Quyoshsiz kunlar bir yilda o‘rtacha 36 kun. O‘rtacha yillik havo harorati esa 13,8 gradusga teng. Toshkent ob-havosi yozda issiq va barqarordir. Yilning eng issiq oyi – iyul, o‘rtacha havo harorati 27 gradus. Yozgi havo haroratining eng yuqori ko‘rsatkichi 44,6 gradusga teng bo‘lib, 1997 yil kuzatilgan. Qish ob-havosi nisbatan beqaror va o‘zgaruvchan. Eng sovuq oy – yanvardagi o‘rtacha havo harorati –0,6 gradusga teng, eng past havo harorati esa – 29,5 gradusga (1930–1931) teng.

Toshkent havosining o‘rtacha yillik nisbiy namligi 58% bo‘lib, qish oylarida 73–74% dan yozda 40–44% gacha o‘zgaradi. Eng past nisbiy namlik 5% ga teng bo‘lib, 1938 yil noyabrdan va 1961 yil fev.da kuzatilgan. Yoz oylarida havodagi nisbiy namlik miqdori kunduzlari kam hollarda 80% dan ortadi va havo dim bo‘ladi. Masalan, 1970 yilning 21 iyulida havo harorati  $19,6^{\circ}$  bo‘lganda nisbiy namlikning 90% ga yetgani aniqlangan.

**Gidrografiysi.** Toshkent shahrining gidrografiysi bir qator sun’iy kanallar va ariqlardan shakllangan. Ular shaharning sug‘orish tizimini tashkil qiladi. Bo‘zsuv, Quyi Bo‘zsuv, Kaykovus, Qoraqamish, Salor, Bo‘rijar, Anhor, Qorasuv kabi yirik kanallar ancha qad. hisoblanadi. Ularning ko‘pchiligi lyoss qatlamlarini o‘yib, chuqur kan’onsimon vodiylar va ularda 2 tagacha kichik terrasalar hosil qilgan. Kanallarning umumiyo yo‘nalishi shim.-sharqdan jan.-g‘arb tomon bo‘lib, hududning umumiyo nishabi yo‘nilishiga mos keladi va suvning tabiiy oqimidan foydalanimi. Shahar hududini kesib o‘tgan kanal va yirik ariqlarning aksariyati ham sug‘orish uchun, ham qaytgan suvlarni, jala tarzida yoqqan yomg‘ir yoki

erigan qor suvlarini chiqib ketishiga xizmat qiladi. Ulardan eng kattasi – Bo‘zsuv kanali. Qolgan kanallarning aksariyati Bo‘zsuv kanalidan suv oladi. Hammasi bo‘lib 23 ming hektar yerni sug‘orishda foydalilaniladigan kanallarning 37 tasi birinchi tartiblidir. Ularning umumiyligi 126,3 km. Qolgan 56 tasi esa ikkinchi tartibli kanallar. Shahar hududida sun’iy ko‘llar ham barpo qilingan. O‘zbekiston milliy bog‘idagi (9 hektar), Fafur Fulom nomidagi madaniyat va istirohat bog‘idagi (4 hektar), «O‘zekspomarkaz» dam olish zonasidagi ko‘llar shular jumlasidan. Kanal va ko‘llar atrofi yozning jazirama issiq kunlarida o‘ziga xos mikroiqlimga ega bo‘lib, aholi dam olishiga qulay maskanlardir.

**Tuproqlari.** Toshkent o‘zining geografik o‘rniga ko‘ra, bo‘z tuproqlar zonasida joylashgan. Shaharning katta qismi – Chirchiq daryosining to‘rtinchisi va uchinchi qayir usti terrasalarida joylashgan qismi tipik bo‘z tuproqlar bilan tavsiflanadi. Bu tuproq insonning xo‘jalik faoliyati ta’sirida kuchli o‘zgargan. Antropogen yotqiziqlarning qalinligi har yerda har xil. Relyefga bog‘liq holda 4–6 m dan 10–12 m gacha, ayrim joylarda 20 m gacha yetadi. Chirchiq daryosining birinchi va ikkinchi qayir usti terrasalarida esa o‘tloq va sug‘oriladigan o‘tloq tuproqlar tarqalgan.

## **1.2 AVTOMOBIL YO‘LINING ASOSIY TEXNIK-IQTISODIY KO‘RSATKICHLARI**


*Yo‘l toifasining asosiy parametrlari SHNQ 2.05.02-07 ga asosan aniqlanadi.*

**1.2-jadval**


<b>Nº</b>	<b>Ko‘rsatkichlar</b>	<b>Qiymati</b>	<b>O‘lchov birligi</b>
<b>1</b>	Yo‘lning toifasi	I <sup>b</sup>	
<b>2</b>	Harakat tasmasining soni	4	ta

<b>3</b>	Harakat tasmasining kengligi	3,75	<b>m</b>
<b>4</b>	Yo‘l yoqasining kengligi	3,75	<b>m</b>
<b>5</b>	Yo‘l yoqasining chetki tasma kengligi	0,75	<b>m</b>
<b>6</b>	Yo‘l yoqasining mustahkamlangan qismi kengligi	2,5	<b>m</b>
<b>7</b>	Yo‘l o‘qi bo‘ylab to‘siqlar o‘rnatilmaganda markaziy ajratuvchi tasmaning eng kam kengligi	5	<b>m</b>
<b>8</b>	Yo‘l o‘qi bo‘ylab to‘siqlar o‘rnatilganda markaziy ajratuvchi tasmaning eng kam kengligi	2+ to‘siq kengligi	<b>m</b>
<b>8</b>	Ajratuvchi tasma chetidagi xavfsizlik tasmasining kengligi	1	<b>m</b>
<b>9</b>	Yo‘l pojining kengligi	27,5 va undan ortiq	<b>m</b>
<b>10</b>	Hisobiy tezlik	120	<b>km/soat</b>
<b>11</b>	Rejadagi egrilik radiuslari	3000 - 1000	<b>m</b>
<b>12</b>	Eng kata bo‘ylama nishablik	40	<b>%</b>
<b>13</b>	Rejadagi eng kichik egrilik radiusi: Asosiy Tog‘li joylarda	800 600	<b>m</b>
<b>14</b>	Buylama kesimda eng kichik egrilik radiusi: Qabariq Botiq	15000 3000	<b>m</b>
<b>15</b>	Hisobiy harakat jadalligi	14000 va undan yuqori	<b>dona/sut</b>

## Harakat jadalligi



## *Ib toifali avtomobil yo'lining ko'ndalang konstruktiv kesimi*



### **1.3 AVTOMOBIL YO‘LNING TRANSPORT FOYDALANISH KO‘RSATKICHLARINI KOMPLEKS BAHOLASH**

Avtomobil yo‘llarining transport-foydalanish holatini baholash yo‘l korxonalarining buyurtmasi asosida ilmiy-tadqiqot tashkilotlari tomonidan, yo‘l korxonalarining muhandis-texnik xodimlari va bo‘lim boshliqlari ishtirokida o‘tkaziladi. Ushbu bitiruv malakaviy ishda avtomobil g‘ildiragi bilan qoplamani ilashish koeffitsienti va harakat tezliklari o‘rganib chiqiladi.

Yo‘lning transport–foydalanish holatini baholashda asosiy ko‘rsatkichlardan biri bo‘lgan avtomobil g‘ildiragining qoplama bilan ilashish koeffitsientlari transport vositalarining tezligiga va xavfsiz harakatlanishiga ta’sir etganligi uchun tekshirilayotgan yo‘lni ko‘rib chiqilayotgan uchastkalarida avtomobillarning harakat tezligini ham aniqlash kerak.

#### **Avtomobil yo‘lining ekspluatatsiya davrida talab qilingan**

**bo‘ylama ilashish koeffitsienti  $\varphi_{tr}$**

**1.3 Jadval**

Harakat sharoiti	Avtomobillarning harakat tezligi				km/h
	40	60	80	100	
<b>Yengil</b>	0,45	0,35	0,26	0,23	
<b>Qiyin</b>	0,50	0,40	0,28	0,25	
<b>Xavfli</b>	0,55	0,45	0,30	0,28	

Ushbu transport-foydalanish ko'rsatkichlarini baholash orqali yo'lni holati aniqlanib, yo'l bo'lagini avariyalik koeffitsienti aniqlanadi. Nisbiy avariyalik koeffitsienti quyidagi formula orqali aniqlanadi.

$$K_a = \frac{Z \cdot 10^6}{365 \cdot N \cdot L_{yu} \cdot n}$$

bu erda: Z-YTHlarni soni, dona;

N-harakat jadalligi, avt/soat;

$L_{uch}$ -uchastka uzanligi, km;

n- yillar.

Nisbiy avariyalik koeffitsienti me'yorlari:

$K_a < 0,40$  xavfsiz;  $K_a - 0,40 \div 0,80$  kam xavfsiz;

$K_a - 0,80 \div 1,2$  xavfli;  $K_a > 1,2$  juda xavfli.

Menga berilgan topshiriqqa binoan 5 km yo'lning uchastkalaridagi nisbiy avariyalik koeffitsienti quyidagicha:

0-1 km uchastkasida:

$$K_a = \frac{22 \cdot 10^6}{365 \cdot 16700 \cdot 1 \cdot 5} = 0.72$$

1-2 km uchastkasida:

$$K_a = \frac{17 \cdot 10^6}{365 \cdot 16700 \cdot 1 \cdot 5} = 0.56$$

2-3 km uchastkasida:

$$K_a = \frac{10 \cdot 10^6}{365 \cdot 16700 \cdot 1 \cdot 5} = 0.33$$

3-4 km uchastkasida:

$$K_a = \frac{10 \cdot 10^6}{365 \cdot 16700 \cdot 1 \cdot 5} = 0.33$$

4-5 km uchastkasida:

$$K_a = \frac{17 \cdot 10^6}{365 \cdot 16700 \cdot 1 \cdot 5} = 0.56$$

*Hisobiy tezlikning ta'minlanish koeffitsienti* quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$K_{x,k} = \frac{V_{haq}}{V_{his}}$$

bu erda:

$V_{haq}$  – avtomobilning oqimdagи harakat tezligi;

$V_{his}$  – avtomobilning hisobiy tezligi.

Hisobiy tezlikning ta'minlanish koeffitsienti topshiriqqa binoan yo'l uchastkalari bo'yicha quyidagicha:

0-1 km uchastkasida:

$$K_{x,k} = \frac{56}{120} = 0.47$$

1-2 km uchastkasida:

$$K_{x,k} = \frac{58}{120} = 0.48$$

2-3 km uchastkasida:

$$K_{x,k} = \frac{55}{120} = 0.46$$

3-4 km uchastkasida:

$$K_{x,k} = \frac{56}{120} = 0.47$$

4-5 km uchastkasida:

$$K_{x,k} = \frac{59}{120} = 0.49$$

Mavjud 5 km yo'lning:

1. 0-1 km uchastkasida:

- Tishlashish koeffitsenti – me'yor bo'yicha 0.40, mavjud yo'lda esa 0.20;
- Hisobiy tezlikning ta'minlanish koeffitsienti – mukammal ta'mir;
- Nisbiy avariyalik koeffitsienti – kam xavfsiz.

2. 1-2 km uchastkasida:

- Tishlashish koeffitsenti – me'yor bo'yicha 0.40, mavjud yo'lda esa 0.28;
- Hisobiy tezlikning ta'minlanish koeffitsienti – mukammal ta'mir;
- Nisbiy avariyalik koeffitsienti – kam xavfsiz.

### 3. 2-3 km uchastkasida:

- Tishlashish koeffitsenti – me'yor bo'yicha 0.40, mavjud yo'lda esa 0.29;
- Hisobiy tezlikning ta'minlanish koeffitsienti – mukammal ta'mir;
- Nisbiy avariyalik koeffitsienti – xavfsiz.

### 4. 3-4 km uchastkasida:

- Tishlashish koeffitsenti – me'yor bo'yicha 0.40, mavjud yo'lida esa 0.30;
- Hisobiy tezlikning ta'minlanish koeffitsienti – mukammal ta'mir;
- Nisbiy avariyalik koeffitsienti – xavfsiz.

### 5. 4-5 km uchastkasida:

- Tishlashish koeffitsenti – me'yor bo'yicha 0.40, mavjud yo'lida esa 0.30;
- Hisobiy tezlikning ta'minlanish koeffitsienti – mukammal ta'mir;
- Nisbiy avariyalik koeffitsienti – kam xavfsiz.

Olingan natijalardan xulosa qilish mumkinki, mavjud yo'l qoplamasining mustahkamligi ta'mir talab xolatga kelib qolgan. Shuning uchun mavjud yo'limizda mukammal ta'mirlash ishlarini olib boramiz.

## *Nuqsonlar qaydnomasi*

Yo‘lning transport-foydalananish ko‘rsatkichlarini aniqlangandan keyin, ushbu ma’lumotlar asosida nuqsonlar qaydnomasi ishlab chiqiladi.

### *1.4-jadval*

Yo‘l uchastkalari	Avtomobil yo‘lini holati	Qabul qilinga chora-tadbirlar
PK0+00– PK10+00	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Tishlashish koeffitsenti – me’yor bo‘yicha 0.40, mavjud yo‘lda esa 0.20;</li> <li>- Hisobiy tezlikning ta’minlanish koeffitsienti – mukammal ta’mir;</li> <li>- Nisbiy avariyalik koeffitsienti – kam xavfsiz.</li> </ul>	<i>mukammal ta’mir</i>
PK10+00–PK20+00	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Tishlashish koeffitsenti – me’yor bo‘yicha 0.40, mavjud yo‘lda esa 0.28;</li> <li>- Hisobiy tezlikning ta’minlanish koeffitsienti – mukammal ta’mir;</li> <li>- Nisbiy avariyalik koeffitsienti – kam xavfsiz.</li> </ul>	<i>mukammal ta’mir</i>
PK20+00–PK30+00	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Tishlashish koeffitsenti – me’yor bo‘yicha 0.40, mavjud yo‘lda esa 0.29;</li> <li>- Hisobiy tezlikning ta’minlanish koeffitsienti – mukammal ta’mir;</li> <li>- Nisbiy avariyalik koeffitsienti – xavfsiz.</li> </ul>	<i>mukammal ta’mir</i>
PK30+00–PK40+00	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Tishlashish koeffitsenti – me’yor bo‘yicha 0.40, mavjud yo‘lda esa 0.30;</li> <li>- Hisobiy tezlikning ta’minlanish koeffitsienti – mukammal ta’mir;</li> <li>- Nisbiy avariyalik koeffitsienti – xavfsiz.</li> </ul>	<i>mukammal ta’mir</i>
PK40+00–PK50+00	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Tishlashish koeffitsenti – me’yor bo‘yicha 0.40, mavjud yo‘lda esa 0.30;</li> <li>- Hisobiy tezlikning ta’minlanish koeffitsienti – mukammal ta’mir;</li> <li>- Nisbiy avariyalik koeffitsienti – kam xavfsiz.</li> </ul>	<i>mukammal ta’mir</i>

## **II. TEXNOLOGIK QISIM**

### **2.1. TALAB QILINADIGAN YO'L QURILISH MATERIALLARI SARFINI ANIQLASH**

Qurilish ishlari avtomobil yo'lidan transport xarakati to'xtatilmasdan olib boriladi. Transport qatnovini taminlash uchun qatnov qismini yarimi navbat bilan quriladi. Jadallik vaqtincha to'htatilgan uchastkada yo'l belgilari va signalniy stolbiklarni ko'chirib chiqib va vaqtincha ajratilgan maydonga to'planadi.

1. Berilgan 5 km yo'l uchastkasi yo'l qoplamasini kuchaytirish uchun:

- 10 sm qum – shag'al aralashmasi;
- 7 sm qora chaqiqtosh;
- 6 sm yirik donali asfaltobeton;
- 5 sm mayda donali asfaltobeton qorishmasini yotqizish.

2. Yo'l yoqasini qurish.

3. Jihozlash ishlarini tashkil etish.

#### **Materiallarni o'rtacha tashish masofasi**

1. ABZ – 15 km
2. Qora chaqiqtosh – 15 km
3. Bitum – 15km
4. QSHA – 25km
5. Suv – 7 km

#### **MUKAMMAL TA'MIRLASH UCHUN KETADIGAN MATERIALLAR SARFI**

1. Supurib tozalangan yuzaga 10 sm qalinlikda qum – shag'al aralashmasini yotqizish:

B=18.5 m

L=5 000 m

h=0.10 m

$\rho = 1.35 \text{ t/m}^3$

$k_z = 1.27$

$k_y = 1.03$

$$S = B \cdot L = 18.5 \cdot 5 000 = 92500 \text{ m}^2$$

$$V = S \cdot h = 92500 \cdot 0.10 = 9250 \text{ m}^3$$

$$Q_{qsha} = V \cdot K_z \cdot K_y \cdot \rho = 9250 \cdot 1.27 \cdot 1.03 \cdot 1.35 = 16 334.9 T$$

2. Yotqizilgan qum – shag‘al aralashmasi ustiga 7 sm qalinlikda qora chaqiqtosh yotqizish:

B=18.5 m

L=5 000 m

h=0.07 m

$\rho = 1.8 \text{ t/m}^3$

$k_z = 1.20$

$k_y = 1.03$

$$S = B \cdot L = 18.5 \cdot 5 000 = 92500 \text{ m}^2$$

$$V = S \cdot h = 92500 \cdot 0.07 = 6475 \text{ m}^3$$

$$Q_{qch} = V \cdot K_z \cdot K_y \cdot \rho = 6475 \cdot 1.20 \cdot 1.03 \cdot 1.8 = 14 405.6 T$$

3. Yotqizilgan qora chaqiqtoshning ustki qismiga qalinligi 6 sm bo‘lgan yirik donali asfaltbeton qorishmasini yotqizish:

B=18.5 m

L=5 000 m

h=0.06 m

$\rho = 2.3 \text{ t/m}^3$

$k_z = 1.25$

$k_y = 1.03$

$$S = B \cdot L = 18.5 \cdot 5000 = 92500 \text{ m}^2$$

$$V = S \cdot h = 92500 \cdot 0.06 = 5550 \text{ m}^3$$

$$Q_{yd} = V \cdot K_z \cdot K_y \cdot \rho = 5550 \cdot 1.25 \cdot 1.03 \cdot 2.3 = 16\ 434.9 T$$

4. Yotqizilgan yirik donali asfaltbeton qorishmasining ustki qismiga qalinligi 5 sm bo‘lgan mayda donali asfaltbeton qorishmasini yotqizish:

$$B=18.5 \text{ m}$$

$$L=5\ 000 \text{ m}$$

$$h=0.05 \text{ m}$$

$$\rho = 2.4 \text{ t/m}^3$$

$$k_z=1.15$$

$$k_y=1.01$$

$$S = B \cdot L = 18.5 \cdot 5000 = 92500 \text{ m}^2$$

$$V = S \cdot h = 92500 \cdot 0.05 = 4625 \text{ m}^3$$

$$Q_{md} = V \cdot K_z \cdot K_y \cdot \rho = 4625 \cdot 1.25 \cdot 1.01 \cdot 2.4 = 14\ 013.8 T$$

5. Yo‘l yoqasini qum – shag‘al aralashmasi(QSHA) bilan mustaxkamlash:

$$B=6 \text{ m}$$

$$L=5\ 000 \text{ m}$$

$$h=0.20 \text{ m}$$

$$\rho = 1.35 \text{ t/m}^3$$

$$k_z=1.20$$

$$k_y=1.05$$

$$S = B \cdot L = 6 \cdot 5\ 000 = 30\ 000 \text{ m}^2$$

$$V = S \cdot h = 30\ 000 \cdot 0.20 = 6000 \text{ m}^3$$

$$Q_{qsha} = V \cdot K_z \cdot K_y \cdot \rho = 6000 \cdot 1.20 \cdot 1.05 \cdot 1.35 = 10206 \text{ m}^3$$

## **2.2. TEXNOLOGIK JARAYONLARDA MASHINA-MEXANIZMLARGA BO'LGAN TALABNI ANIQLASH**

### **Tayyorgarlik ishlari**

1. Mayjud yo'l qoplamasidagi BDO-5 ni yo'l o'qidan yonga ko'chirish;
2. Mayjud yo'l qoplamasining umumiy yuzasining 25% ni freza yordamida o'rtacha 5 sm qalinlikda kesib olish;
3. Freza yordamida kesib olingan yo'l qoplamasini ABZ ga tashib ketish;
4. Mayjud yo'l qoplama yuzasini chang va qoplama qoldiqlaridan supurib tozalash.

### **Asosiy ishlar**

#### **Qum – shag'al aralashmasini yotqizish**

1. Qum – shag'al aralashmasinikar'erda ishlash;
2. Qum – shag'al aralashmasini avtosamosvalda tashib keltirish;
3. Tashib keltirilgan qum – shag'al aralashmasini oyish;
4. Tashib keltirilgan qum – shag'al aralashmasininamlash;
5. Suv sepib namlanganqum – shag'al aralashmasinizichlash:
  - engil katok;
  - o'rta katok;
  - og'ir katok.

#### **Qora chaqiqtoshni yotqizish**

1. Tozalangan yuzaga bitum sepish;
2. Qora chaqiqtoshni avtosamosvalda tashib keltirish;
3. Tashib keltirilgan qora chaqiqtoshniasfalbyotqizgich bilan yotqizish;
4. Yotqizilgan qora chaqiq toshnizichlash:
  - yengil katok;
  - o'rta katok;
  - og'ir katok.

#### **Yirik donali asfaltbeton qorishmasini yotqizish**

1. Yirik donali asfaltbeton qorishmasini avtosamosvalda tashib keltirish;

2. Tashib keltirilgan yirik donali asfaltbeton qorishmasini asfaltyotqizgich bilan yotqizish;
3. Yotqizilgan yirik donali asfaltbeton qorishmasini zichlash:
  - yengil katok;
  - o‘rta katok;
  - og‘ir katok.

### **Mayda donali asfaltbeton qorishmasini yotqizish**

1. Mayda donali asfaltbeton qorishmasini avtosamosvalda tashib keltirish;
2. Tashib keltirilgan mayda donali asfaltbeton qorishmasini asfaltyotqizgich bilan yotqizish;
3. Yotqizilgan mayda donali asfaltbeton qorishmasini zichlash:
  - yengil katok;
  - o‘rta kotok;
  - og‘ir katok.

### **Yo‘l yoqasini qurish**

1. Qum – shag‘al aralashmasini karerda ishlash;
  2. Qum – shag‘al aralashmasini avtosamosvalda tashib keltirish;
  3. Qum – shag‘al aralashmasini avtoreyder yordamida yoyish;
  4. Yoyilgan qum – shag‘al aralashmasinisuv sepib namlash;
  5. Yoyilgan qum – shag‘al aralashmasinizichlash:
    - o‘rta katok.
- BDO-5 ni joyiga ko‘chirish.

### **Pardozlash ishlari**

1. Qoplama yuzasiga yo‘l chiziqlarini chizish.

## Tayyorgarlik ishlari

**1. Mavjud yo'l qoplamasidagi BDO-5 ni yo'l o'qidan yonga ko'chirish.**

**Avtokranning KS-3571A markasini tanlaymiz**



2.1-rasm Avtokran KS-3571A

**2.1-jadval**

Belgilanishi	Kattalik tasnifi	Qiymati	O'lchov birligi
$q_{ep}$	O'rnatilgan element massasi	<b>10,0</b>	t
$t_c$	YUkni ilish vaqtি	<b>0,016</b>	m
$t_{per}$	YUkni harakatlanish vaqtি	<b>0,015</b>	soat
$t_r$	YUkni tashish vaqtি	<b>0,01</b>	soat
$t_{ob.x}$	Strelaning orqaga yoki bo'sh holatda harakatlanish vaqtি	<b>0,0105</b>	soat
$N_p$	YUk ko'tarish balandligi	<b>3</b>	m
$V_p$	Ko'tarish tezligi	<b>0,5</b>	m/s
$N_o$	YUk tushirishmasofasi	<b>3</b>	m
$V_o$	Ko'tarish tezligi	<b>0,5</b>	m/s
$K_v$	Ichki smenalik vaqtidan foydalanish koeffitsienti	<b>0,75</b>	
$K_t$	Texnik unumdarlikdan ekspluatatsion unumdarlikka o'tish koeffitsienti	<b>0,75</b>	

Belgilanishi	Kattalik tasnifi	Qiymati	O'lcov birligi
$t_p$	<p><i>YUk ko 'tarish vaqtி</i></p> $t_p = \frac{N_p}{3600 \cdot V_p}$	<b>0,0017</b>	<i>soat</i>
$t_o$	<p><i>YUk tushirish vaqtி</i></p> $t_o = \frac{N_o}{3600 \cdot V_o}$	<b>0,0017</b>	<i>soat</i>
$P_k$	<p><i>Avtokranning ish unumdorligi:</i></p> $P_k = \frac{q_{ep}}{t_s + t_p + t_{per} + t_o + t_r + t_{obx}} \cdot K_v \cdot K_t$	<b>102.46</b>	<i>t/soat</i>
$P_k^{sm}$	<p><i>Avtokranning bir ish smenasidagi ish unumdorligi:</i></p> $P_k^{sm} = 8 \cdot P_k$	<b>819,68</b>	<i>t/smena</i>
$M$	<i>BDO-5 ning umumiyl massasi</i>	<b>3333</b>	<i>t</i>
$N$	<i>Cmenalar sonini aniqlaymiz:</i> $n = \frac{M}{P_k^{sm}}$	<b>4,07</b>	$\approx 5$
$F$	<i>Foydali ish koeffitsienti:</i> $F = \frac{n}{\approx n}$	<b>0,81</b>	
$T$	<i>Ish vaqtி:</i> $t = F \cdot 8$	<b>6,48</b>	<i>soat</i>
$L$	<i>Yo 'lning umumiyl uzunligi</i>	<b>5000</b>	<i>m</i>
$L$	<p><i>Ish ko 'lami:</i></p> $l = \frac{L}{n}$	<b>1000</b>	<i>m</i>

**2. Mavjud yo'l qoplamasining umumi yuzasining 25% ni freza yordamida o'rtacha 5 sm qalinlikda kesib olish.**

### **Frezalovchi mashinaning RX 110 markasini tanlaymiz**



**2.2-rasm Freza RX 110**

### **2.2-jadval**

<b>Belgilanishi</b>	<b>Kattalik tasnifi</b>	<b>Qiymati</b>	<b>O'lchov birligi</b>
<b>V<sub>r</sub></b>	Ishchi tezlik	<b>700</b>	m/soat
<b>B</b>	Frezalash kengligi	<b>3,8</b>	m
<b>K<sub>sl</sub></b>	Kesish qarshiligini hisobga oluvchi koeffitsient	<b>0,98</b>	
<b>K<sub>v</sub></b>	Ichki smenalik vaqtidan foydalanish koeffitsienti	<b>0,75</b>	
<b>K<sub>t</sub></b>	Texnik unumdorlikdan ekspluatatsion unumdorlikka o'tish koeffitsienti	<b>0,70</b>	
<b>P<sub>f</sub></b>	<i>Frezalovchi mashinaning ish unumdorligi:</i> $P_f = V_r \cdot b \cdot K_{sl} \cdot K_v \cdot K_t$	<b>1368,57</b>	<i>m<sup>2</sup>/soat</i>
<b>P<sub>f<sup>sm</sup></sub></b>	<i>Frezalovchi mashinaning bir ish smenasidagi ish unumdorligi:</i> $P_f^{sm} = 8 \cdot P_f$	<b>10948,56</b>	<i>m<sup>2</sup>/smena</i>
<b>S</b>	Frezalash yuzasi	<b>23125</b>	<i>m<sup>2</sup></i>

Belgilanishi	Kattalik tasnifi	Qiymati	O‘lchov birligi
$N$	Cmenalar soni: $n = \frac{s}{P_f^{sm}}$	2,11	$\approx 3$
$F$	Foydali ish koeffitsienti: $F = \frac{n}{\approx n}$	0,70	
$T$	Ish vaqtி: $t = F \cdot 8$	5,60	soat

3. Freza yordamida kesib olingan yo‘l qoplamasini ABZ ga tashib ketish.

### Avtosamosvalning VOLVO A40D markasini tanlaymiz



2.3-rasm Avtosamosval VOLVO A40D

### 2.3-jadval

Belgilanishi	Kattalik tasnifi	Qiymati	O‘lchov birligi
$q_{a/s}$	Avtosamosvalning yuk ko‘tara olish qobiliyati	37	t
$P$	Aralashmaning zichligi	2,4	t/m <sup>3</sup>
$L_{o'r}$	Gruntni o‘rtacha tashish masofasi	15,0	km
$V$	Xarakatlanish tezligi	40	km/soat
$t_p$	Gruntni avtosamosvalga yuklashga ketgan vaqt	0,35	soat
$t_r$	Gruntni to‘kishga ketgan vaqt	0,05	soat
$K_v$	Ichki smenaviy foydalanish koeffitsienti	0,75	
$K_t$	Texnik unumdorlikdan ekspluatatsion	0,7	

Belgilanishi	Kattalik tasnifi	Qiymati	O'lchov birligi
	unumdorlikka o'tish koeffitsienti		
$P_{a/s}$	$Avtosamosvalning ish unumdorligi:$ $P_{a/s} = \frac{q_{a/s}}{\rho \cdot (\frac{2 \cdot L_{o/r}}{v} + t_n + t_p)} \cdot K_v \cdot K_t$	7,04	$m^3/soat$
$P_{a/s}^{sm}$	$Avtosamosvalningbir ish smenasidagi ish unumdorligi:$ $P_{a/s}^{sm} = 8 \cdot P_{a/s}$	56,32	$m^3/smena$
$N$	$Bir smenada talab etiladigan avtosamosvallar soni$ $N = \frac{V}{P_{a/c}^{sm}}$	20,53	$\approx 21$
$F$	$Foydali ish koeffitsienti:$ $F = \frac{n}{z_n}$	0,98	
$T$	$Ish vaqtি: t = F \cdot N$	7,84	soat

**4. Mavjud yo'l qoplama yuzasini chang va qoplama qoldiqlaridan supurib tozalash.**

#### Supuruvchi mashinaning **SEMAT A400** markasini tanlaymiz



2.4-rasm Supuruvchi mashina **SEMAT A400**

## 2.4-jadval

Belgilanishi	Kattalik tasnifi	Qiymati	O'lchov birligi
<b>B</b>	Bir izdan o'tishdagi supurish eni	<b>2,0</b>	m
<b>A</b>	Bir izni qoplash eni	<b>0,20</b>	m
